
TUMAN MADANIYAT BO'LIMI QOSHIDAGI "NODIRABEGIM" RAQS TO'GARAGINING "YANGI YIL" BAYRAMIGA BAG'ISHLANGAN HISOBOT KONSERTI DASTURI TASHKIL ETILDI

Bugun Toshloq tumani, 1-sektor hududidagi Nayman mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan, "Madaniyat Markazi" da Yangi yil bayrami arafasida tuman aholisiga hush kayfiyat ulashish maqsadida tuman Madaniyat bo'limi qoshidagi "Nodirabegim" raqs to'garagining hisobot konsert dasturi tashkil etildi.

Tadbirda to'garak rahbari N.Turg'unboyeva hamda to'garakning yosh a'zolari tomonidan ijro etilgan turli raqs va qo'shiqlar 400 nafarga yaqin tomoshabinlarga yuqori kayfiyat ulashdi. Bunday tadbirlar tumandagi barcha hududlarda davom ettiriladi.

2022-12-24 17:09:49